



ISSUES IN STANDARDIZING QUALIFICATION REQUIREMENTS FOR SECURITIES MARKET SPECIALISTS

Gulom Husainov

Senior researcher, Center for Research on Privatization and State
Assets Management Problems Tashkent, Uzbekistan
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19941772>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2026

Accepted: 29th April 2026

Online: 30th April 2026

KEYWORDS

Securities market, human
capital, competence,
financial institutions, risk
management, digital
transformation.

ABSTRACT

The article analyzes the significance of human capital and professional competencies in ensuring the efficiency and stability of the securities market. It highlights the growing importance of knowledge, skills, and ethical standards in the context of financial integration and digital transformation.

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI MUTAXASSISLARINING MALAKASIGA QO'YILADIGAN TALABLARNI STANDARTLASHTIRISH MASALALARI

Xusainov G'ulom Luqmonovich

Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish Markazi
katta ilmiy xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19941772>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2026

Accepted: 29th April 2026

Online: 30th April 2026

KEYWORDS

Qimmatli qog'ozlar
bozori, inson kapitali,
kasbiy kompetensiya,
moliyaviy institutlar,
risklarni boshqarish,
raqamli transformatsiya.

ABSTRACT

Maqolada qimmatli qog'ozlar bozorining samaradorligi va barqarorligini ta'minlashda inson kapitali hamda bozor ishtirokchilarining kasbiy kompetensiyalari o'rganilgan. Moliya tizimlarining integratsiyalashuvi, raqamli transformatsiya va moliyaviy instrumentlarning murakkablashuvi sharoitida mutaxassislarning bilim, ko'nikma va etik me'yorlarga asoslangan kompetensiyalari muhim omil sifatida tahlil qilinadi.

KIRISH

Globalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, kapital oqimlarining erkinlashuvi hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida kapital bozorlari nafaqat investitsiya resurslarini qayta taqsimlash mexanizmi, balki iqtisodiy

o'sish va institutsional rivojlanishning muhim drayveri sifatida shakllanib bormoqda. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar bozorining integratsiyalashuvi va moliyaviy instrumentlar strukturasi murakkablashuvi inson kapitaliga nisbatan an'anaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish



hamda yangi kompetensiya talablarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Avvallari inson kapitali asosan bilim, tajriba va malaka bilan cheklangan bo'lsa, bugungi kunda u ko'proq kompleks, ko'p qirrali tushunchaga aylangan. Birinchidan, moliya bozorlari o'zaro chambarchas bog'lanib, kapital harakati tezlashdi. Bu esa mutaxassislardan nafaqat milliy bozordagi, balki xalqaro moliya tizimidagi jarayonlarni ham chuqur tushunishni talab qiladi. Endilikda investorlar, treyderlar va moliyaviy tahlilchilar global risklar, valyuta tebranishlari, geosiyosiy omillarni hisobga olgan holda qaror qabul qilishlari zarur. Ikkinchidan, moliyaviy vositalarning murakkablashuvi (derivativlar, strukturaviy mahsulotlar, algoritmik savdo tizimlari va boshqalar) yuqori darajadagi texnik bilim va analitik tafakkurni talab etmoqda. Bu jarayonda inson kapitalining sifat ko'rsatkichlari - masalan, raqamli savodxonlik, ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalari va texnologiyalar bilan ishlash qobiliyati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Uchinchidan, innovatsiyalar va raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitali endi faqat bilim emas, balki moslashuvchanlik, kreativ fikrlash va doimiy o'rganishga tayyorlik bilan ham belgilanadi. Texnologiyalar rivojlangan sari moliyaviy jarayonlar avtomatlashtirilmoqda, biroq ularni to'g'ri boshqarish va strategik qarorlar qabul qilishda inson omilining roli yanada oshmoqda. Shuningdek, risklarni boshqarish madaniyati ham o'zgarmoqda. Murakkab instrumentlar bilan ishlash xatolik ehtimolini oshiradi, bu esa inson kapitalida mas'uliyat, etik

me'yorlar va stressga chidamlilik kabi sifatlarni ham muhimlashtiradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorlarining o'zaro integratsiyalashuvi investitsiya jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi. Shu bilan birga, bir mamlakat fond bozorida yuzaga kelgan inqirozli holatlarning boshqa bozor segmentlariga zanjirsimon ta'sir ko'rsatish xavfi ham ortib bormoqda. Ushbu jarayonda inson kapitali o'ziga xos "himoya filtri" vazifasini bajaradi. Ya'ni, professional mutaxassis fond bozori kon'yunkturasini chuqur tahlil qila olishi, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni samarali amalga oshirishi, algoritmik savdo tizimlari hamda raqamli aktivlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Bugungi moliya bozorida raqobat endilikda faqat moliyaviy resurslar o'rtasida emas, balki bilim, tahliliy fikrlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati o'rtasida kechmoqda. Shu nuqtai nazardan, inson kapitalining sifati bozor samaradorligi va barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu jarayonlar natijasida moliya bozorlarida ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlar inson kapitali rolini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Ya'ni, global integratsiya va raqamli transformatsiya nafaqat bozorlar tuzilmasini o'zgartirdi, balki ushbu tizimda faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalariga bo'lgan talablarni ham kuchaytirdi.

Investitsiya risklarini samarali boshqarish esa mutaxassisning malaka darajasiga bevosita bog'liq. Yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan mutaxassislarning qarorlari nafaqat alohida investorlar uchun zarar keltirishi, balki butun moliya tizimiga



bo'lgan ishonchning pasayishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

Shu sababli, moliya bozori mutaxassislarini standartlashtirilgan talablar asosida sertifikatlash jarayoni shunchaki ma'muriy yoki byurokratik tartib emas, balki tizimli risklarni kamaytirish va moliyaviy yo'qotishlarning oldini olishga qaratilgan muhim institutsional mexanizm hisoblanadi.

Fond bozori infratuzilmasining samarali va barqaror faoliyat yuritishi unda shakllangan inson kapitalining sifati bilan bevosita belgilanadi. Ya'ni, investorlar, brokerlar, dilerlar hamda institutsional ishtirokchilarning bilim darajasi, amaliy ko'nikmalari, kasbiy tajribasi va tahliliy salohiyati fond bozori mexanizmlarining samarali ishlashini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Moliyaviy instrumentlarning murakkablashuvi va savdo jarayonlarining raqamlashtirilishi inson kapitaliga qo'yilayotgan talablarni yanada kuchaytirmoqda. Shu bois, yuqori sifatli inson kapitalini shakllantirish fond bozori barqarorligi, likvidligi va ishonchliligini ta'minlashning muhim institutsional sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda fond bozori nafaqat kapitalni jalb qilish va qayta taqsimlash mexanizmi, balki yuqori texnologiyalar va raqamli platformalar bilan integratsiyalashgan murakkab tizim sifatida shakllanmoqda. Ushbu jarayonda moliya bozorlarining barqarorligi va samaradorligi ko'p jihatdan inson kapitalining sifati va mutaxassislarining kasbiy kompetensiya darajasiga bog'liq ekani xalqaro tashkilotlar tomonidan

ham ta'kidlanadi. Jumladan, Iqrisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) (2018) va Xalqaro valyuta jamg'armasi (2020) tahlillarida moliyaviy tizim barqarorligi bevosita bozor ishtirokchilarining professional tayyorgarligi bilan belgilanishi qayd etiladi [1;2]. XV] tomonidan amalga oshiriladigan Financial Sector Assessment Program doirasidagi tahlillarda moliyaviy tizimning chidamliligi quyidagi omillarga asoslanishi ta'kidlanadi: regulyator organlarning nazorat qilish qobiliyati, risklarni erta aniqlash mexanizmlari hamda institutsional boshqaruv sifati.

Ushbu yondashuvga ko'ra, kapital bozori institutlarida xodimlar kompetensiyasi tizimli barqarorlikning muhim elementi hisoblanadi. Malakali mutaxassislar mavjudligi moliyaviy risklarni samarali boshqarish, bozor ishonchliligini oshirish hamda investitsiyaviy qarorlar sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy moliyaviy tizimlarda institutsional salohiyat va inson kapitali sifati barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida qaraladi.

Moliya bozorlari samaradorligini ta'minlash, uning institutsional asoslarini mustahkamlash hamda tartibga solish tizimini takomillashtirish masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda asosiy ilmiy e'tibor moliya bozori infratuzilmasining institutsional sifati, bozor ishtirokchilarining kasbiy malakasi hamda investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlariga qaratilgan. Xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish nazariyasida



bozor vositachilarining professional kompetensiyasi kompleks yondashuv asosida baholanadi. IOSCO tomonidan ishlab chiqilgan "Objectives and Principles of Securities Regulation" hujjatida vositachilar faoliyatining barqarorligi va ishonchiligi nafaqat ularning texnik bilim va amaliy ko'nikmalariga, balki professional etika, halollik hamda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tamoyillariga ham bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi [3].

Yevropa Ittifoqi moliya bozorlarini tartibga solish tizimida MiFID II muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi [4]. Ushbu direktiva investitsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi shaxslarning "zarur bilim va kompetensiyaga ega bo'lishi" talabini belgilaydi. Mazkur yondashuv moliya bozorida professional standartlarni institutsional darajada mustahkamlashga va xizmatlar sifatini oshirishga yo'naltirilgan. ESMA tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomalarda esa ushbu talablar yanada aniqroq belgilab berilib, investorlarni himoya qilish va bozor barqarorligini ta'minlashning amaliy instrumenti sifatida talqin etiladi [3]. Xalqaro darajada moliya bozorlarini tartibga solish tamoyillari IOSCO prinsiplari asosida shakllangan [4]. Ushbu hujjatda moliya bozori vositachilarining faoliyatida nafaqat texnik malaka, balki professional etika, halollik va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish mexanizmlariga rioya etish zarurligi ta'kidlanadi.

Professional kompetensiya va etik standartlar CFA Institute tomonidan ham alohida ta'kidlanadi [5]. Mazkur institut etika kodeksida investitsiya mutaxassislaridan "integrity,

competence, diligence and respect" tamoyillariga rioya etish talab qilinadi. Bundan tashqari, IMF va BIS tadqiqotlarida tizimli risklar ko'pincha regulativ sifat va institutsional zaifliklar bilan bog'liqligi qayd etiladi [6]. Jahon banki esa moliyaviy sektor samaradorligi inson kapitali sifati va institutsional rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi [7].

MDH mamlakatlari tajribasida kapital bozori transformatsiyasi jarayonida institutsional islohotlar va kadrlar tayyorlash tizimi tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllangan. Moliyaviy sektor islohotlarining zamonaviy bosqichi nafaqat tartibga solishning takomillashtirilishi, balki bozor infratuzilmasining institutsional jihatdan transformatsiyasi bilan ham tavsiflanadi. (Rubtsov, 2022)[8].

Professional kompetensiya va moliya bozori ishtirokchilarining malaka standartlari masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda alohida tadqiq yo'nalishi sifatida qaraladi. Ushbu kontekstda Novikov P.N. va Novikova T.R. moliyaviy faoliyatdagi professional standartlarning konseptual asoslarini tahlil qilib, ularni bozor ishtirokchilarining bilim, ko'nikma va etik xulq-atvori bilan bog'liq kompleks tizim sifatida talqin etadilar. Ularning yondashuvida professional standartlar moliya sohasida faoliyat samaradorligini ta'minlovchi institutsional va normativ asos sifatida qaraladi.

Shu jihatdan, Novikov va Novikova (2015) moliyaviy faoliyatdagi professional standartlarning konseptual va terminologik asoslarini yoritib, ushbu sohada qo'llaniladigan asosiy tushunchalarning ilmiy jihatdan



tizimlashtirilishiga muhim hissa qo'shadi. Mualliflar professional standartlar mohiyatini aniqlash orqali moliyaviy faoliyatda kasbiy malaka, etika va institutsional talablar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni konseptual darajada ochib beradi. Bu esa o'z navbatida moliya bozorlarida professional faoliyatni tartibga solish va standartlashtirishga qaratilgan nazariy yondashuvlarni shakllantirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistondagi ilmiy izlanishlarda ham qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida inson kapitalining sifati, xususan xodimlarning kasbiy kompetensiyasi va ularni doimiy qayta tayyorlash tizimi muhim ahamiyat kasb etadi (Бутиков, 2025) [10]. Shuningdek, Butikov I.L. o'z tadqiqotlarida nodavlat ta'lim tashkilotlarining iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlashdagi rolini alohida ta'kidlab, ularning mehnat bozori va inson kapitali sifatini oshirishdagi institutsional ahamiyatini asoslaydi (Бутиков, 2022) [11]. Suyunov D.X. va Elmirezayev S.E. korporativ boshqaruvda hisobdorlik, axborot shaffofligi, ichki nazorat tizimi hamda inson resurslari salohiyati kompaniya samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi (Suyunov, Elmirezayev, 2022) [12].

Adabiyotlar sharhi natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy moliya bozorlari samaradorligi faqat regulyativ mexanizmlarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. U ko'proq institutsional sifat, bozor ishtirokchilarining professional kompetensiyasi hamda

xalqaro standartlarning milliy moliya tizimiga integratsiya darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, moliya bozorlarining barqaror va samarali rivojlanishi kompleks yondashuvni talab etadi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolaning metodologik asosi qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassislariga qo'yiladigan malaka talablarini takomillashtirishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarini tahlil qilishga yo'naltirilgan yondashuvga tayanadi. Maqolada muammoni har tomonlama o'rganish maqsadida qiyosiy-huquqiy va iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish, statistik ma'lumotlar tahlili hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili usullaridan foydalanildi. Xususan, qiyosiy tahlil doirasida rivojlangan davlatlar hamda O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi huquqiy bazasi o'zaro solishtirildi. Shuningdek, CFA Institute kabi xalqaro professional tashkilotlarning sertifikatlash tizimlari O'zbekistonda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan belgilangan malaka talablari bilan taqqoslanib, ular o'rtasidagi tarkibiy va mazmuniy farqlar aniqlandi. Tizimli yondashuv asosida bozor ishtirokchilari, regulyatorlar va ta'lim institutlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar tahlil qilindi. Mantiqiy umumlashtirish orqali mavjud nazariy va amaliy materiallar asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili orqali esa milliy malaka tizimining huquqiy asoslari va uning xalqaro standartlarga moslik darajasi o'rganildi.

Natijalar.



Tadqiqot natijalari qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassislarining malakasini standartlashtirish nafaqat kadrlar sifatini oshirish, balki bozor barqarorligini belgilovchi muhim omil ekanligini ko'rsatmoqda. Olingan natijalar quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilindi.

Kompetensiyalar ierarxiyasi va "hard skills" hamda "soft skills" o'rtasidagi muvozanat. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, fond bozori mutaxassislari uchun kompetensiyalar "kompetensiya piramidasi" shaklida tizimlashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu piramida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: Ushbu modelga ko'ra, mutaxassisning professional samaradorligi texnik, raqamli hamda etikaviy kompetensiyalar uyg'unligiga tayanadi.

Birinchi darajani texnik kompetensiyalar (Hard Skills) tashkil etadi. Ular moliyaviy modellashtirish, derivativ instrumentlarni baholash, portfel tahlili hamda ekonometrik metodlardan foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi texnik kompetensiyalar xodimlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va operatsion risklarni kamaytiradi. OECD (2013, 2019) tadqiqotlari yuqori malakali ishchi kuchi va mehnat unumdorligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Ikkinchi darajani raqamli kompetensiyalar (Digital Literacy) tashkil etadi. Ushbu yo'nalish ma'lumotlar tahlili uchun miqdoriy tahlil vositalaridan (Python, R) foydalanish, algoritmik savdo tizimlarini boshqarish hamda katta ma'lumotlar (big data) bilan ishlash ko'nikmalarini qamrab oladi.

O'zbekiston moliya bozori rivojlanish tendensiyalari shuni ko'rsatadiki, raqamli kompetensiyalarga ega mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Mehnat bozori signallari ushbu yo'nalishda malaka yetishmovchiligi mavjudligini va raqamli ko'nikmalarning strategik ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Uchinchi darajani shaxsiy samaradorlikni ifodalovchi "yumshoq ko'nikmalar" (Soft Skills) tashkil etadi. Bu bosqichda asosiy e'tibor mutaxassisning etik me'yorlarga rioya qilishi hamda intellektual salohiyatiga qaratiladi. Bu guruhga manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, qaror qabul qilish madaniyati, stressga chidamlilik va professional mas'uliyat kiradi. CFA Institute va Ethisphere Institute ma'lumotlariga ko'ra, yuqori etik standartlarga rioya qilish investorlar ishonchini oshiradi, moliyaviy risklarni kamaytiradi va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi [13;14].

Umuman olganda, kompetensiya strukturasi faqat texnik bilimlar ustuvorligiga emas, balki texnik, raqamli va "yumshoq ko'nikmalar" o'rtasidagi muvozanatga asoslanishi lozim. Ushbu muvozanat kapital bozori mutaxassislarining barqaror professional faoliyatini ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA.

Ushbu maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, qimmatli qog'ozlar bozorining samarali va barqaror faoliyati inson kapitali sifati hamda bozor ishtirokchilarining kasbiy malaka darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Moliyaviy tizimlarning integratsiyalashuvi sharoitida kapital bozorlari tobora murakkablashib borar ekan, unda



faoliyat yurituvchi mutaxassislardan nafaqat an'anaviy iqtisodiy bilimlar, balki yuqori darajadagi raqamli savodxonlik, analitik tafakkur va moslashuvchanlik ham talab etilmoqda.

Tahlillar davomida aniqlangan asosiy xulosalardan biri shuki, fond bozori mutaxassislarning malakalari "hard skills", "digital skills" va "soft skills" o'rtasidagi muvozanat asosida shakllanishi lozim. Aynan ushbu uch komponentning uyg'unligi professional samaradorlikni ta'minlaydi hamda investitsiya qarorlarining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, xalqaro tajriba va normativ-huquqiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliya bozorlarida professional sertifikatlash tizimlari va malaka standartlari institutsional barqarorlikni ta'minlashning muhim mexanizmlaridan biridir. Ushbu tizimlar nafaqat individual mutaxassislarning malakasini oshiradi,

balki umumiy bozor ishonchliligi va investorlar himoyasini kuchaytiradi.

O'zbekiston moliya bozori rivojlanishi nuqtai nazaridan xalqaro standartlarga mos keluvchi kasbiy malaka tizimini joriy etish, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish hamda uzluksiz kasbiy ta'lim mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida kapital bozorining chuqurlashuvi, uning likvidliligi oshishi hamda investitsiyaviy muhitning yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, qimmatli qog'ozlar bozori barqarorligini ta'minlashda inson kapitalini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Bozor ishtirokchilarining malakasi va kompetensiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, moliyaviy tizimning umumiy samaradorligi va inqirozlarga chidamliligi ham mustahkam bo'ladi.]

References:

1. OECD. Korporativ boshqaruv bo'yicha OECD ma'lumotnomasi 2018. – Parij : OECD nashriyoti, 2018
2. International Monetary Fund. Global Financial Stability Report: A Decade after the Global Financial Crisis: Are We Safer? – Washington, DC : International Monetary Fund, 2018. – 178 p.
3. International Organization of Securities Commissions (IOSCO). Objectives and Principles of Securities Regulation. -Madrid:IOSCO, 2017. - 120 p. <https://www.iosco.org/library/pubdocs/pdf/IOSCOPD561.pdf>
4. Directive 2014/65/EU of the European Parliament and of the Council (MiFID II). — Official Journal of the European Union, 2014.
5. CFA Institute. Code of Ethics and Standards of Professional Conduct. — Charlottesville : CFA Institute, 2014.
6. International Monetary Fund. Global Financial Stability Report. — Washington, DC : IMF, 2023.
7. World Bank. Financial Sector Development Report. — Washington, DC : World Bank, 2023.
8. Криничанский К.В., Рубцов Б.Б. Регулирование финансового сектора в повестке реформ экономической политики. Финансы: теория и практика/Finance:



Theory and Practice. 2022;26(5):6-21. <https://doi.org/10.26794/2587-5671-2022-26-5-6-21>

9. Новиков П.Н., Новикова Т.Р. Профессиональные стандарты финансовой деятельности-понятийный аппарат // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. - 2015.- №31 (316).

10. Бутиков И.Л. Роль переподготовки кадров и повышения их квалификации в ускорении развития экономики // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. — 2025. — Т. 5. — № 12. — С. 124–136.

11. Бутиков И.Л. Роль негосударственных образовательных организаций в подготовке кадров для экономики страны // Архив научных исследований. — 2022. — Т. 2. — № 1.

12. Suyunov D.X., Elmirzayev S.E. *Korporativ boshqaruv: darslik*. — Toshkent: Darslik, 2022.

13. CFA Institute. Code of Ethics and Standards of Professional Conduct. -Charlottesville: CFA Institute, 2023.-Available at: <https://www.cfainstitute.org>

14. Ethisphere Institute. World's Most Ethical Companies (WMEC) Methodology and Reports.-New York: Ethisphere Institute, 2023.- Available at: <https://ethisphere.com>